



XALQ DEPUTATLARI GURLAN TUMANI KENGASHINING QARORI

2025-yil 18-avgust

VII-14-87-12-171-K/25

Gurlan tumani

Gurlan tumanidagi Shang'i va Paxtakor mahallalarini qayta nomlash haqidagi taklifni tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2014-yil 4-martdagi "Shaharlar, shaharchalar, qishloqlar va ovullarning mahallalarini tuzish, birlashtirish, bo'lish va tugatish, shuningdek, ularning chegaralarini belgilash va o'zgartirish, ularga nom berish va ularning nomini o'zgartirish tartibi to'g'risidagi Nizomni tasdiqlash haqida"gi 48-son qarori hamda Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to'g'risidagi takliflarni Davlat eksperetizasidan o'tkazish bo'yicha Kadastr agentligi ekspert komissiyasining 2025-yil 11-iyuldagi 05-19-11481-sonli xulosasi, O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 6 va 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Geografik obyektlarga nom berish va ularni qayta nomlash to'g'risidagi takliflarni Davlat eksperetizasidan o'tkazish bo'yicha Kadastr agentligi ekspert komissiyasining 2025-yil 11-iyuldagi 05-19-11481-sonli xulosasi ma'qullansin.

2. Gurlan tumanidagi Shang'i mahallasi nomi Baynalmilal deb va Paxtakor mahallasi nomi Shang'i deb o'zgartirilsin.

2. Tuman ichki ishlar bo'limi (I.Mirzayev) mahallalar fuqaro yig'inlariga eski muhr va shtamlari topshirilgandan keyin yangidan muhr va shtamp tayyorlatishga ruxsat bersin.

3. Davlat kadastrlari palatasi tuman filiali, tuman qurilish bo'limi nomi o'zgargan fuqarolar yig'inlari bilan birgalikda biro y muddatda geografik obyekt nomi qayd qilingan peshlavha o'rnatilsin.

4. Mazkur qaror "Gurlan hayoti" gazetasida e'lon qilinsin va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

5. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari Gurlan tumani Kengashining Ijtimoiy soha, yoshlar siyosati, madaniyat va sport masalalari bo'yicha

doimiy komissiyasi X.Tajimuratov hamda tuman hokimining o‘rinbosari Sh.Eshmetov va O‘zbekiston mahallalari uyushmasi tuman bo‘limi raisi Dj.Xalmuratov zimmasiga yuklansin.

Sessiya raisi



XUDAYAROV SHOKIR
RADJAPOVICH